

HADISLAR DIDAKTIK ASAR SIFATIDA

Abdullayeva Shirinoy Ulug'bek qizi

**Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek tili) yo'nalishi 1 bosqich talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19979247>

Anotatsiya: Hadislar insonni axloqan kamol toptirish, to'g'ri yo'lga boshlash va jamiyatda ezgu fazilatlarini qaror toptirishga xizmat qiluvchi muhim manba sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning tarbiyaviy, ma'rifiy va pand-nasihati berish xususiyatlari ochib berilib, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdagi roli qisqacha bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Hadis ilmi, Al-Jome 'as Sahih, muhaddis, islom olami, sahih hadislar, ilmiy meros, axloqiy tarbiya, ilm va tarbiya, didaktika, ma'naviy kamolot, islom ta'limoti.

Ushbu mavzuda hadislarining didaktik asar sifatidagi o'rni va ahamiyati yoritiladi.

Hadislar islom ta'limotining muhim manbalaridan biri bo'lib, ular nafaqat diniy hukmlarni, balki insoniy fazilatlar, axloqiy me'yorlar va hayotiy tajribalarni o'zida mujassam etgan didaktik asar sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ning so'zlari, amallari va ko'rsatmalari orqali insonlarni ezgulikka, halolikka, sabr-toqatga va mehr-oqibatga chorlovchi pand-nasihatlari bayon etilgan.

Hadislarining didaktik xususiyati ularning qisqa, lo'nda va chuqur ma'noga ega bo'lishida namoyon bo'ladi. Ular orqali inson hayotining turli jabhalariga oid axloqiy qoidalar o'rgatiladi.

Masalan: odob-axloq, ota-ona, ilm olish fazilatlarini haqida bayon etiladi.

Quyida ularga misollar keltirilgan:

“Sizlarning eng yaxshilaringiz – axloqi eng go'zal bo'lganlaringizdir”¹.

Bu esa insonning haqiqiy qadri uning odobi va xulq-atvori bilan belgilanadi degan g'oyani ilgari suradi.

“Kim ilm izlab yo'lga chiqsa, Alloh unga jannat yo'lini oson qiladi”².

Bu hadis ilm yo'lida harakat qilgan insonning savobi va maqomi yuksak ekanini bildiradi.

“Jannat onalarning oyoqlari ostidadir”

Bu hadis onaga hurmat va xizmat qilish naqadar ulug' amal ekanini bildiradi.

Hadis ilmi (mustalah al-hadis)da rivoyatlarning ishonchlilik darajasi alohida mezonlar asosida baholanadi. Shu jihatdan hadislar asosan sahih (ishonchli) va nosahih (ishonchsiz) turlarga ajratiladi.

1. Sahih hadis (to'g'ri va ishonchli hadis)

Sahih hadis – isnodi (rivoyatchilar zanjiri) uzluksiz bo'lgan, roviylari adolatli va xotirasi kuchli, shuningdek, matni boshqa ishonchli hadisga zid kelmaydigan rivoyatdir³.

Sahih hadisning asosiy shartlari:

Isnodi uzilmagan bo'lishi

Roviylar ishonchli (adl) va aniqlik bilan rivoyat qiluvchi (zabtli) bo'lishi

Shuzuz (boshqa sahih hadisga zidlik) bo'lmasligi

Yashirin nuqson ('illat)dan xoli bo'lishi

¹ Sahih al-Bukhariy 1-hadis

² Sahih Muslim, 2321-hadis.

³ Imom an-Nawaviy. “Taqrif va Taysir” (hadis ilmi bo'yicha asar).

Masalan, Sahih al-Bukhari va Sahih Muslim to'plamlaridagi hadislar eng ishonchli hisoblanadi.

2. Nosahih hadis (ishonchsiz hadis)

Nosahih hadis – yuqoridagi sahahlik shartlaridan biri yoki bir nechyasi buzilgan hadisdir.

Ular bir necha turga bo'linadi:

Zaif hadis – isnodida uzilish yoki roviylaridan biri zaif bo'lgan hadis

Mavzu' hadis – soxta, to'qib chiqarilgan hadis

Munkar hadis – zaif roviy rivoyat qilgan va ishonchli rivoyatlarga zid keladigan hadis⁴.

Bunday hadislar diniy hukm chiqarishda asos sifatida olinmaydi (ayniqsa mavzu' hadislar qat'iyan rad etiladi).

Xulosa qilib aytganda, hadislar o'zining mazmun-mohiyati, tarbiyaviy yo'nalishi va hayotiy ahamiyati bilan didaktik asar sifatida alohida o'rin tutadi. Ular insonni komillikka yetaklovchi bebaho ma'naviy merosdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Qur'on
2. Imom al-Buxoriy. Al-Jome' as -Sahih. Toshkent: 2008
3. Islom ensiklopediyasi. 1-jild. Toshkent 2010
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammadyusuf. "Hadis va hayot" Tosheknt 20017
5. www.ziyo.uz.com

⁴ Sahih al-Buxoriy